E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

CHET TILIDA SO‘Z O‘ZLASHTIRISH JARAYONI

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-03

To‘xtayeva Dilnoza Zayniddin qizi

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

E-mail: tukhtaevadino1229@gmail.com

Aloqa uchun : +998911651804

Annotatsiya

Ushbu maqolada chet tilida so‘z o‘zlashtirishning qanday jarayonlar asosida kechishi, o‘zlashtirish jarayoni modellari va chet tilini o‘qitishda bu modellardan qanday foydalanish haqida so‘z boradi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar, tajribalar va ularning xulosalari asosidagi chet tili o‘rganuvchilarining lug‘at boyligini shakllantirishga oid tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar

Chet tili sifatida o‘qitish, so‘z o‘zlashtirish, eksplitsit model, implitsit model, produktiv malaka, retseptiv malaka.

Abstract

This article discusses the processes of acquiring words in a foreign language, models of the word acquisition process, and how to use these models in teaching a foreign language. Also, recommendations on the forming of the vocabulary of foreign language learners based on scientific researches, experiments and their conclusions are given.

Keywords

Teaching as a second (foreign) language, word acquisition, explitsit model, implitsit model, words, receptive skill, productive skill.

Yangi so‘zni o‘zlashtirish eng kamida uni so‘z sifatida taniy olishni va umumiy leksikonga kiritishni nazarda tutadi. Ammo shunday leksikonlar borki, ular nutqni qabul qilish va ishlab chiqarishning (input/ output) turli kanallari uchun ixtisoslashgan bo‘ladi. Masalan, og‘zaki nutqni tushunish uchun eshitib qabul qilishga xoslangan leksikon tovush shakllarini tasniflashi kerak bo‘ladi (bu tasnif nutq so‘zlovchilar, sheva va hokazolarga ko‘ra o‘zgarib turadi). So‘zni o‘qish uchun esa vizual qabul qilishga xoslangan leksikon yangi yozma shakllarni taniy olishi kerak. So‘zni aytish uchun og‘zaki nutq leksikoni so‘z talaffuziga moslagan holda motor dasturini sozlashi kerak, so‘zni yozish uchun esa yozma nutq (imloviy) leksikoni uning orfografik ifodasi uchun moslanishi kerak. Keyingi bosqichlarda so‘zning sintaktik xususiyatlari, leksik tuzilishi, boshqa so‘zlar bilan aloqasi, semantik xususiyatlari, uning konseptual tizimimizdagi o‘rnini belgilovchi konseptual asoslarni o‘rganish lozim. Demak, so‘z

o‘zlashtirishning yagona jarayoni yo‘q, shu sababdan ularni mantiqiy, psixologik va pedagogik jarayonlarga ajratgan holda o‘rganish qulay yo‘ldir.

Lug‘at boyligimizning katta qismi bizga maxsus o‘rgatilmagan, shuningdek, uni lug‘at kitoblaridan ham ko‘rib chiqmaganmiz. Biz uni kontekst orqali tasodifiy tarzda o‘zlashtirganmiz. Bunday o‘zlashtirish, asosan, o‘qish davomida uchraydigan kontekstlar orqali amalga oshadi. Ko‘proq mutolaa qiladigan odamlar ko‘proq so‘z boyligiga ega bo‘lishi ham shundan. Shuningdek, tushunish murakkab bo‘lgan va tilda juda kam qo‘llaniladigan “noyob” so‘zlarning ham kontekst orqali o‘zlashtirilishi aniqlangan. Xususan, Saragi, Neyshin va Meysterlar 1978-yilda buni aniqlash uchun tajriba sinovini o‘tkazishgan. Ular yuqori sinf o‘quvchilariga Antoni Byurjesning “Soat mexanizmli apelsin” (A Clockwork Orange) romanini o‘qishni buyurishadi. Romanda rus tilidan o‘zlashgan “nadsat” deb nomlanuvchi 241 ta jargonlar qo‘llangan bo‘lib, ular o‘rtacha 15 marta takrorlangan. Roman o‘qib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilardan 90 ta nadsatni o‘z ichiga oluvchi kutilmagan sinov topshirig‘i olinadi. Natijada o‘quvchilar romanni o‘qish orqali butunlay notanish bo‘lgan 45 ga yaqin yangi so‘zni a’lo darajada o‘zlashtirgani aniqlanadi.[1]

Bu borada o‘tkazilgan keyingi tadqiqotlarda ham o‘qish, ya’ni mutolaa qilish so‘z boyligini shakllantirish va oshirishning eng mukammal usuli ekanligi isbotlagan. Lug‘at boyligining yuqori va past darajasini belgilab beruvchi chastotasi o‘rta va past bo‘lgan so‘zlar aynan yozma matnlarda ko‘proq uchraydi. Shuningdek, og‘zaki nutqdan farqli o‘laroq, o‘qish davomida har bir so‘zning ma’nosi bilan alohida ishlash uchun yetarli vaqt bo‘ladi.

So‘z o‘zlashtirish jarayoniga oid turli nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib quyida ular bilan tanishamiz.

1. Implitsit so‘z o‘zlashtirish gipotezasi. Ushbu gipotezada yangi so‘zning ma’nosi turli kontekstlarning takroriy ta’sirlari abstraktsiyasi natijasida butunlay ongsiz ravishda o‘zlashtirilishi aytiladi. Bu gipotezani S. Krashenning input gipotezasi orqali ham asoslash mumkin. Uning fikricha, biz tilni xabarlarni qabul qilish orqali egallaymiz, ya’ni “Til ongsiz ravishda o‘zlashtiriladi, uni o‘zlashtirayotganingizni sezmaysiz, chunki bunda ong e’tiborini shaklga emas, xabar mazmunini tushunishga qaratadi”.[2]

2. Eksplitsit so‘z o‘zlashtirish gipotezasi. Bunda yangi so‘zni o‘rgatishda ma’lum metakognitiv strategiyalardan (notanish so‘zlarni aniqlash, uning ma’nosini kontekstga ko‘ra taxmin qilish, lug‘atlardan foydalanib tahlil qilish, yangi tushunchani assotsiatsiyalab o‘rganish) foydalanilish orqali o‘quvchilarning so‘zni o‘zlashtirishini sezilarli darajada osonlashishini nazarda tutadi.

1 Nick C. Ellis (1995) The psychology of foreign language acquisition. P. 3

2 Krashen, Stephen D. (1989), “We Acquire Vocabulary and Spelling by Reading: Additional Evidence for the Input Hypothesis”, The Modern Language Journal, 73 (4): P. 440

Shu o‘rinda agar so‘zlar implitsit ravishda o‘zlashtirilsa, ularni o‘qitish nimaga kerak degan savol paydo bo‘ladi. Buning javobi shuki, yuqoridagi 2 ta gipoteza so‘z o‘zlashtirishning turli jihatlarini nazarda tutadi. Inson aqliy qobiliyati ham 2 xil usulda – implitsit va eksplitsit tarzda bilim olishga xoslangan. Implitsit, ya’ni yashirin o‘rganish tabiiy, ong operatsiyalarisiz oddiy sodir bo‘ladigan jarayonlar orqali murakkab muhitning asosiy tuzilishi haqidagi bilimga ega bo‘lishdir. Eksplitsit, ya’ni aniq maqsad bilan o‘rganish esa bu tuzilishni tushunish uchun ko‘proq ongli operatsiyalarga tayanishdir.

Bilim egallashning bu 2 usuli o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda bosh miyaning o‘rta qismi (gipotalamus va limbik tizim) shikastlanishi natijasida amneziyaga uchragan bemorlar o‘rganilgan. Bunday bemorlarda implitsit o‘rganish qobilayati normal saqlanadi, ammo eksplitsit va epizodik xotiraning yo‘qolishi kuzatiladi (Ular miya shikastlanganidan keyingi har qanday hodisalarni ongli ravishda eslab qolish qobiliyatini yo‘qotadilar). Demak, amneziklar so‘zni o‘zlashtirishning faqatgina implitsit usulidan foydalanadi. Ularning so‘z o‘zlashtirish qobiliyatini o‘rganish, bizga qaysi jarayonlar aniq yo‘riqnoma asosida, qaysilari tasodifiy tarzda o‘zlashtirilishi haqida qimmatli xulosalarni beradi:

1) So‘z shakllarini idrok etish sodda jarayon hisoblanib, bunday bilim implitsit tarzda oson o‘zlashtiriladi;

2) Produktiv bilim uchun zarur bo‘lgan yangi so‘zlarning ifoda aspektlarini tushunish va ularni motor tizimida aks ettirish implitsit ravishda amalga oshadi, ya’ni so‘zlarni og‘zaki va yozma tarzda ifodalash uchun nutq ishlab chiqarish logogenlari (output logogens) ham hech qanday qiyinchiliksiz avtomatik tarzda rivojlanadi.

3) Shunga qaramay, amnezik bemorlar yangi so‘zlarning ma’nosini o‘zlashtirishga qodir emas. Ular yangi konseptual ma’lumotlarni ishlab chiqarishda va yangi semantik aloqalarni yaratishda jiddiy kamchiliklarga ega. Tilni qabul qilish va ishlab chiqarish uchun yashirin modullar emas, balki kognitiv tamoyillarga muvofiq ishlaydigan konseptual tizim mavjud. Shu sababli so‘z ma’nolarini o‘rganish va qayta ishlash eksplitsit ravishda o‘rganishni talab qiladi.

Shunday qilib, amnezik bemorlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar so‘zni implitsit va eksplitsit o‘zlashtirish o‘rtasidagi chegarani aniqlashga yordam bergan: so‘zni tanib olish, uni ifodalash mexanizmi va u ifodalagan tushunchani o‘zlashtirish alohida ta’lim jarayonlaridir. [3]

Tilning implitsit modeli

Insonning leksik tizimi orfografik qonuniyatlarga (harflarning birikish va ketma-ket kelish ehtimollari), fonologiyadagi qonuniyatlarga (fonologik ketma-ketlik ehtimollari), grafema-fonema o‘zaro moslashuvining barqaror qoliplariga, quyi chastotali so‘zlarga nisbatan yuqori chastotali so‘zlarni qo‘llashga ixtisoslashgan bo‘ladi. Shu sababli input modellari yuqori

3 Schacter, D.L. (1987). Implicit memory: History and current status. Journal of Experimental Psychology: Learning, Memory, and Cognition, 515

chastotali so‘zlarni tezroq taniydi va ishlab chiqarish modellari ham ularni tezroq ifodalaydi. “Sensor-motor tizimining oltin qoidasi – ko‘p takrorlanishdir”[4]. Bu shuni anglatadiki, qabul qilinayotgan shakllar qanchalik ko‘p va tez takrorlansa, ular shunchalik yaxshi o‘zlashtiradi.

Tilning eksplitsit modeli

Ushbu modelga ko‘ra, qabul qilingan ma’lumot bir necha shakllarda kodlanishi mumkin, Masalan, semantik, fonetik, vizual xususiyatlari, verbal assotsiatsiyalari bo‘yicha yoki tasvir sifatida. Ma’lumotni qayta ishlash shaklni aniqlash orqali sensorli tahlil darajasidan semantik rivojlanishga o‘tadi. Qayta ishlash darajalari shuni ko‘rsatadiki, semantik assotsiatsiyalarga kirib borish va ishlab chiqarish orqali qilinadigan qayta ishlash ma’lumotning xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Bouer va Vinzensning 1970-yilda o‘tkazgan tajriba sinovlari ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. Tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda ular so‘z o‘zlashtirishda semantik va tasviriy vositaning 2 ta muhim strategiyasi yuqori samaradorlikka egaligini aniqladilar. Dastlab ishtirokchilar ularga taqdim etilgan 15 ta ixtiyoriy so‘zlar juftligini o‘zaro bog‘lashni o‘rganadilar (daraxt – pianino). So‘ngra quyidagi shartlarni bajaradilar: a) takrorlash – har bir so‘zlar juftligi og‘zaki takrorlanadi; b) gapni o‘qish – ishtirokchilar so‘zlar juftligini sodda gap tarkibida ko‘rishgan, ulardan mazkur gapni o‘qish va uni 2 so‘zni bog‘lash uchun qo‘llash buyuriladi; d) gap tuzish – har bir ko‘rsatilgan so‘zlar juftligi asosida gap tuzish va ovoz chiqarib o‘qish so‘raladi; e) tasvir – juftlikdagi 2 ta so‘zning o‘zaro yaqqol ta’siri aks etgan biror tasvirni xayolan tasavvur qilish buyuriladi. Har bir shartlarda eslab qolish natijalari katta farq bilan yuzaga chiqadi: takrorlash – 5.6%, gapni o‘qish – 8.2%, gap tuzish – 11.5 %, tasviriy tasavvur qilish – 13.1%.5

Shunday qilib, so‘zga ishlov berish, uni qayta ishlash jarayonlari chet tilida so‘z o‘zlashtirish uchun samarali hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Annisa, A., (2013) Techniques in presenting vocabulary to young EFL learners. Journal of English and Education, 1(1),
2. Azimova Iroda, “O‘zbek tilidagi Grammatik afaziyada ot va fe’llarning ifodalanishi. “So‘z san’ati” xalqaro jurnalidagi maqola.Toshkent-2020
3. Batia Laufer, Paul Nation. Vocabulary Size and Use: Lexical Richness in L2 Written Production. *Applied Linguistics,* Volume 16, Issue 3, September 1995
4. Cameron, L. (2002) Measuring vocabulary size in English an additional language. Language Teaching Research.
5. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. English Language Series, London: Longman.

4 Seibert, L.C. (1927). An experiment in learning French vocabulary. Journal of Educational Psychology, 18, p. 321.

5 Bower, G.H. & Winzenz, D. (1970). Comparison of associative learning strategies. Psychonomic Science, 20, 119-120.

6. Jack C. Richards Curriculum Development in Language Teaching. Cambridge University Press 2001
7. James Milton Measuring Second Language Vocabulary Acquisition. Multilingual Matters. 2009
8. Laufer, B. & P. Nation. (1999). A vocabulary size test of controlled productive ability.Language Testing
9. Mariusz Piotr. Defining with Simple Vocabulary in English Dictionaries. Kamiński University of Applied Sciences in Nysa. 2021 – John Benjamins
10. Mofareh Alqatani (2015). The importance of vocabulary in language learning and how to be taught. International Journal of Teaching and Education, Vol. III(3)
11. Nation, I. S. P. (2006). How large a vocabulary is needed for reading and listening? Canadian Modern Language Review 63(1), 59-82)
12. Неъматов Х.Г., Ғуломов А.Қ., Зиёдова Т.У. “Сўз бойлигини ошириш”. Тошкент, 1997
13. Paul Nation and Robert Waring Schmitt, N. and M. McCarthy (Eds.): Vocabulary: Description, Acquisition and Pedagogy (pp. 6-19)
14. Р.А.Йўлдашев “Ўзбек тили дарсларида ўқувчиларнинг оғзаки нутқини уларни кўп гапиртириш орқали ўстириш методикаси” Монография «Фан ва технология» нашриёти, 2012.
15. Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранном языке. Высшая школа, 1980
16. Schmitt, N. (1997). Vocabulary learning strategies. In Schmitt, N. and McCarthy, M. (eds.) Vocabulary:Descriptive, Acquisition and Pedagogy. Cambridge: Cambridge University Press.

WORDLY KNOWLEDGE